



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№7  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori  
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Umarova H. O'.** – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G' B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Umarova H.O'.** – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F.O.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – doctor of philosophy (PhD) in psychology

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo’yicha  
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
<b>Nazarov Odil Omanqulovich</b>	
“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o’rni .....	20
<b>Abirova Umida Nazarovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	23
<b>Akramov Dostonbek Ikromjon o’g’li</b>	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	27
<b>Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna</b>	
Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta’limiy o’yinlarning ahamiyati ..	31
<b>Salimova Dilmira Farxodovna</b>	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	34
<b>Rajabov Asliddin Xolmirzayevich</b>	
Favqulodda vaziyatlar yo’nalishi ta’limida muloqotning ahamiyati.....	37
<b>Boltayev Baxtiyor Yunusovich</b>	
Biologiya ta’limi va raqamli texnologiyalar .....	41
<b>E. Po’latova</b>	
Boshlang'ich ta’limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo’naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ....	44
<b>Egamova Ravshanoy Surobjonovna</b>	
O‘zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta’lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
<b>G’ayniddinov Shayxislom Tolibjon o’g’li</b>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	53
<b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>	
Developing Student’s Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	56
<b>Mavlonova Dildora Shuxrat qizi</b>	
Bahrom Ro‘zimuhammad she’rlarini o‘qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	60
<b>Nomozova Dilobar Suyun qizi</b>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo‘lajak pedagoglarda altruizm ko‘nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar.....	65
<b>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</b>	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	68
<b>Qayumov Jamshid Ma’rufjon o’g’li</b>	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature .....	73
<b>Ruzieva Maftuna</b>	
Onlayn va gibrid ta’lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
<b>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</b>	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun “metallar va ularning umumiy xususiyatlari” mavzusida) .....	81
<b>Sharipova Hakima Shavkatovna</b>	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	85
<b>Turayeva Nazira Ibragimovna</b>	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	88
<b>Меденцева Наталья Петровна</b>	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	93
<b>Jonibekov Jasur Jonibekovich</b>	
O‘zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san’atning ajralmas qismi.....	98
<b>Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi</b>	

# AHOLINING IQTISODIY AXBOROT SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLAR

Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Informatika kafedrası katta o'qituvchisi  
Toshkent amaliy fanlar universiteti

ORCID: 0009-0001-0617-4859

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aholining iqtisodiy axborot savodxonligini rivojlantirishdagi muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimlari, bu yechimlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari, pedagogik usullar va vositalar, samarali metodlar, texnik va dasturiy vositalar haqida, shuningdek, ulardan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, axborot, iqtisodiy axborot, pedagogik aspektlar, pedagogik metodlar va vositalar, metodlarni amalga oshirish jarayonlari, individual yondashuv, psixologik aspektlar, ijtimoiy va iqtisodiy aspektlar, kompyuter tarmoqlari, iqtisodiy bilimlar, kompyuter texnologiyalari, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazalari.

**Abstract:** This article discusses the problems and shortcomings in developing the economic information literacy of the population and ways to address them, the pedagogical possibilities for their implementation, pedagogical methods and tools, effective strategies, technical and software resources, as well as the challenges encountered in their use.

**Key words:** competence, information, economic information, pedagogical aspects, pedagogical methods and tools, processes of implementing methods, individual approach, psychological aspects, social and economic aspects, computer networks, economic knowledge, computer technologies, software, databases.

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы и недостатки в развитии экономической информационной грамотности населения и пути их решения, педагогические возможности их реализации, педагогические методы и средства, эффективные методики, технические и программные средства, а также проблемы, возникающие при их использовании.

**Ключевые слова:** компетенция, информация, экономическая информация, педагогические аспекты, педагогические методы и средства, процессы реализации методов, индивидуальный подход, психологические аспекты, социальные и экономические аспекты, компьютерные сети, экономические знания, компьютерные технологии, программное обеспечение, базы данных.

## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida iqtisodiy bilimlar har bir fuqaro uchun zaruriy kompetensiya hisoblanadi. Iqtisodiy axborot kompetentligi (IAK) deganda shaxsning iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va oqibatlarni tushunish, baholash va ularga adekvat javob bera olish qobiliyati tushuniladi. Aholining IAK darajasi jamiyatning iqtisodiy barqarorligi, o'sishi va farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, IAKni oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Biroq, bu borada bir qator muammolar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholining iqtisodiy axborot savodxonlik darajasi pastligi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- noto'g'ri iqtisodiy qarorlar – moliyaviy savodsizlik tufayli shaxslar noto'g'ri investitsiyalar kiritishi, qarzga botishi va firibgarlik qurboni bo'lishi mumkin;
- ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi – iqtisodiy bilimga ega bo'lmagan aholi qatlami iqtisodiy o'sishdan chetda qolishi va qashshoqlikda yashashda davom etishi mumkin;
- iqtisodiy barqarorlikka tahdid – moliyaviy bozorlardagi spekulativ harakatlar, bankrotliklar va iqtisodiy inqirozlar aholining past iqtisodiy axborot savodxonlik darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin;



- demokratik institutlarga ishonchsizlik – iqtisodiy siyosatni tushunmaslik natijasida aholi hukumatning iqtisodiy siyosatiga ishonchsizlik bildirishi va siyosiy beqarorlikka hissa qo'shishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishda quyidagi muammolar va kamchiliklar mavjud:

Ta'lim tizimidagi kamchiliklar: maktab va universitetlarda iqtisodiy ta'limning yetarli emasligi. O'quv dasturlarida amaliy ko'nikmalarga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Fan doirasida asosan iqtisodiy terminlar haqidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi. Iqtisodiy jarayonlarning borishi, iqtisodiy operatsiyalar haqida deyarli ma'lumot berilmaydi.

O'qituvchilarning iqtisodiy bilim darajasi va metodik tayyorgarligining yetarli emasligi, iqtisodiy jarayonlarni tashkil etuvchi simulyatorlarning mavjud emasligi.

Iqtisodiy ta'limning uzluksizligi ta'minlanmagan (maktabdan keyingi ta'lim, qayta tayyorlash kurslari).

Axborot resurslarining cheklanganligi:

- sifatli va ishonchli iqtisodiy axborot manbalarining yetishmasligi;
- iqtisodiy axborotning murakkabligi va tushunarsizligi;
- iqtisodiy axborotning tarqalishidagi tengsizlik (shahar va qishloq o'rtasida).

Aholining motivatsiyasining pastligi:

- iqtisodiy bilimlarning kundalik hayotdagi ahamiyatini anglamaslik;
- iqtisodiy ta'lim olishga qiziqishning yetarli emasligi;
- vaqt va resurslarning cheklanganligi;
- aholi katta qismining axborot tizimlaridan faqatgina vaqtni o'tkazish uchun foydalanishi.

Davlat siyosatidagi kamchiliklar:

- aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishga qaratilgan milliy strategiya va dasturlarning yetarli emasligi;
- moliyaviy ta'minotning cheklanganligi;
- davlat organlari, ta'lim muassasalari, NNTlar va ommaviy axborot vositalari o'rtasida koordinatsiyaning yetishmasligi.

Madaniy omillar:

- iqtisodiy masalalarni muhokama qilishdan tortinish;
- moliyaviy rejalashtirish va tejashga e'tiborning yetarli emasligi;
- riskka bo'lgan munosabatning konservativligi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining IAK (iqtisodiy axborotga kirish) darajasini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ta'lim tizimini takomillashtirish doirasida maktab va universitetlarda iqtisodiy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlariga amaliy ko'nikmalarni (byudjetni rejalashtirish, investitsiya qilish, qarzni boshqarish) kiritish, o'qituvchilarning iqtisodiy bilimini oshirish va metodik tayyorgarligini kuchaytirish, shuningdek, uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini yaratish (kattalar uchun kurslar, onlayn ta'lim platformalari) zarur. Axborot resurslarini kengaytirish orqali sifatli va ishonchli iqtisodiy axborot manbalarini yaratish va tarqatish (veb-saytlar, mobil ilovalar, televideniye va radio dasturlari), iqtisodiy axborotni sodda va tushunarli tilda taqdim etish hamda iqtisodiy axborotning tarqalishidagi tengsizlikni bartaraf etish (qishloq joylarida axborot markazlarini tashkil etish, internetga ulanish imkoniyatini kengaytirish) lozim.

Aholining motivatsiyasini oshirish uchun iqtisodiy bilimlarning kundalik hayotdagi ahamiyatini targ'ib qilish (ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy reklama), iqtisodiy ta'lim olishga qiziqishni oshirish (tanlovlar, o'yinlar, seminarlar) hamda iqtisodiy ta'lim olish uchun qulay sharoitlar yaratish (onlayn kurslar, bepul maslahatlar) muhimdir. Davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha aholining IAK darajasini oshirishga qaratilgan milliy strategiya va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, bu orqali davlatning mehnat resurslaridan samarali foydalanish, bandlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholining farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks chora-tadbirlar majmuasini shakllantirish zarur. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son<sup>1</sup> Farmon (2022 yil 28-yanvar)da aholining bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, moliyaviy ta'minotni oshirish, davlat organlari, ta'lim muassasalari, NNTlar va OAV o'rtasida koordinatsiyani kuchaytirish zarur. Epsteinning ta'rificha, ta'lim jarayonida turli manfaatdor tomonlarning hamkorligi ta'lim sifatini oshirishga va o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> <https://www.lex.uz/uz/docs/-5841063>

Madaniy o'zgarishlarni rag'batlantirish yo'nalishida iqtisodiy masalalarni ochiq muhokama qilishni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Fridrix Hayek ta'kidlashicha, iqtisodiy bilimlar jamiyat bo'ylab tarqalgan bo'lib, markazlashgan rejalashtirish orqali to'liq qamrab olinishi mumkin emas. Ochiq muhokama turli xil bilimlarni birlashtirishga va markazlashgan rejalashtirishning xatolarini kamaytirishga yordam beradi (Hayek, 1945). Moliyaviy rejalashtirish va tejash madaniyatini targ'ib qilish shaxslar va oilalarga o'z moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, kelajak uchun mablag' jamg'arish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar majmuasidir.

Bu madaniyat iqtisodiy barqarorlik, shaxsiy farovonlik va jamiyatning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Riskka bo'lgan munosabatni o'zgartirish ham muhim ahamiyatga ega. Kahneman va Tversky tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga ko'ra, odamlarning risk bilan bog'liq qarorlari ratsional emas, balki psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Odamlar yutuqlardan ko'ra yo'qotishlardan ko'proq qo'rqishadi (loss aversion), bu esa ularni konservativ qarorlar qabul qilishga undaydi (Kahneman & Tversky, 1979).


## XULOSA

Aholining iqtisodiy axborot kompetentligini oshirish – jamiyatning iqtisodiy farovonligi va barqarorligini ta'minlashning muhim omilidir. Ushbu maqolada ko'rsatilgan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish orqali aholining iqtisodiy axborot kompetentlik darajasini oshirish va iqtisodiy bilimli fuqarolar jamiyatini shakllantirish mumkin. Buning uchun ta'lim tizimini takomillashtirish (ta'lim jarayonini amaliyot bilan bog'lash, manfaatdor tashkilotlarni ta'limga jalb qilish, o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratish), axborot resurslarini kengaytirish (sohaga oid bosma, video, audio, vizual axborotlarni ko'paytirish va targ'ibotni kuchaytirish), aholining motivatsiyasini oshirish (jarayonga rag'batni oshiruvchi ijtimoiy axborotlarni keng targ'ib qilish), davlat siyosatini takomillashtirish va madaniy o'zgarishlarni rag'batlantirish zarur, deb hisoblayman.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мамаражабов М.Э. Критерии оценки профессионально-педагогической подготовки будущих учителей в цифровом образовании. Педагогика фанлари доктори, профессор.
2. Mamarajabov M. E., Ismoilova D. S. (2020). The concept of development of information technology education in the system of continuous education in the Republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 06(86), 481–487.
3. Mamarajabov M. E. (2022). Technologies of Digital Didactics. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 78–84.
4. Rajabov Asliddin Xolmirzayevich. Bo'lajak iqtisodchilarda axborot kompetentligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida.
5. Добрава Л. В. Формирование информационной компетентности студентов технического вуза в процессе активного обучения.
6. Rajabov A. X. Talabalarning iqtisodiy axborot kompetentligini rivojlantirishdagi muammolar.
7. Rajabov A. X. Iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalana olish darajasini oshirish.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.